



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERG SHE'RIYATIDA
LINGVISTIK IFODA XUSUSIYATLARI ("VARAQ" SHE'RI TAHLILI)

Habibova Fayyoz Jamshid qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari

universiteti 1-ingliz tili fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Aleksandr Arkadevich Faynberg (1939-2009) – Toshkentda tavallud topgan rus shoiri va tarjimoni, qalbi o'zbek yozuvchi. U o'zbek kitobxonlari va she'riyat ixlosmandlari qalbidan joy olgan ijodkor. U o'zining o'ndan ortiq she'riy to'plamlari, badiiy film ssenariylari hamda tarjimalari bilan ko'plab insonlarning qalblariga yetib borgan. Sababi shundaki, A.A. Faynbergning ijodiyoti hayotiyli, shaffofligi va samimiyligi bilan ajralib turadi. Aleksandr Faynberg- rusiyabon kitobxonlarga o'zbek she'riyati durdonalarini yetkazib berdi (shular jumlasidan, E. Vohidovning "Ruhlar isyoni" poemasi).

Kalit so'zlar: Faynberg, varaq, teranlik, falsafiy, ruhiyat, ma'naviyat, adabiyot.


LINGUISTIC FEATURES OF EXPRESSION IN A.A.FAINBERG'S POETRY
(ANALYSIS OF THE POEM "PAGE")

Habibova F.J

Annotation: Aleksandr Arkadeyevich Fainberg (1939-2009) was a Russian poet and translator born in Tashkent. He is also known as an Uzbek writer. Fainberg's poetry and literary works have taken a special place in Uzbek literature. He translated many significant works, film scripts and plays, and through them managed to win the hearts of many people. The reason is that A.A.Fainberg's poetic creativity is distinguished by its lyricism and sincerity. Aleksandr Fainberg introduced Uzbek poetry to Russian readers and conveyed it to them with depth and sensitivity (for example, E. Vohidov's poem "Ruhlar isyoni").

Keywords: Fainberg, page, depth, philosophical, spirituality, literature.

Aleksandr Arkadevich Faynberg o'zbek dramaturgiyasi va nazmida insoniy ruhiyat, falsafiy qarashlar va badiiy shaffoflikni umumlashtira olgan ijodkorlardan biri hisoblanadi. Uning she'rlaridagi rang-baranglik va teranlik o'quvchini o'ziga jalb qilibgina qolmasdan, shoir o'quvchini o'z ichki kechinmalarini his qilishga, she'r ichida sayohat qilishga undaydi. "Varaq" she'rida shoir o'z she'rlarini qay darajada yaxshi ko'rishini, ular haqida qayg'urishini ko'rsatishga astoydil harakat qiladi va buni uddasidan chiqadi. Shoir she'rlarini asrab-avaylash va ularni kelgusi avlodga yetkazishdek mas'uliyatli vazifani esa varaqlardan iltimos qiladi:





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

“Daftarimdan yirtilgan varaq,
Asragin men yozgan she’rlarni”.

Shoir ushbu satrlarga ilova qilib, yulduzlarni falak asrashini, teran dengiz esa durlarni asrashini ta’kidlab o’tadi.

Keyingi satrlarda esa shoir she’r u uchun nima ekanligini bildiradi va shunday deya ta’riflaydi:

“She’r - nafaqat o’qimoq, uqmoq,
She’r - yurakda yangragan tovush:
Qutqargandek taygada so’qmoq,
Tebrangandek ko’llarda qamish.

Ijodkor qalbining tub-tubidan kelayotgan bu so’zlar, u aslida bejizga shoir bo’lmaganining isboti emasmi? Faynberg she’rni yurakdan chiqayotgan tovushga qiyoslab, bu so’zlarning chindan ham qalbdan chiqayotganiga urg’u beryapti. Shoir she’rni taygadagi so’qmoq yoki ko’llardagi qamishga o’xshatish bilan she’rlarining sokinligini, ammo shu bilan bir qatorda yashirin kuchga ega ekanligini yoritib bergan. Shoirning otashqalbli inson ekanligi uning she’rlarida ham o’z aksini topgan.

Shoir tuyg’ularining xilma-xilligini, sofligini so’zda to’g’ri talqin qiladi va kitobxonga ham bu so’zlarni his ettiradi. Ijodkor qalbini, borlig’ini ijodga bog’lagan, yurakdan chiqayotgan so’zlar esa samimiyligi bilan ajralib turadi:

“Har satrim - jon, har she’rim - yurak”.

Faynberg sodda, lekin musiqiy ohangga ega tarzda so’zlarni jonlantirgan. Ijodkor yakuniy satrni shunday yakunlaydi:

“Avlodlarga kelmasin malol,
She’rlarim g’am chekmasin nochor,
Shamol, dengiz va yaproq misol
Nafas olsun, kulsin beg’ubor”

(Rus tilidan Rustam Musurmon tarjimasini)

Shoir yakuniy parchada she’rlariga, chin ma’noda, o’z o’rnini topishini, barhayot va “baxtli” bo’lishini tilaydi.

Xulosa o’rnida shuni aytish joizki, shoir sermahsul va chegara bilmas ijodkor.” Varaq“ she’ri esa shoirning ichki kechinmalari, tuyg’ulari, ijodga bo’lgan mehri va samimiy ichki dunyosini kitobxonga ochib beradi. U O’zbekistonda hayot kechirdi, ijod qildi. Bu yurt, uning tuprog’i, havosi shoir uchun o’z she’rlari kabi aziz va muqaddas. Ijodkor qalamiga oid har qanday ijod mahsuli hayotiyliigi hamda o’ziga xosligi bilan ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Faynberg A. A Tanlangan asarlar. - Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1989.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

2. Faynberg A. A Izbrannye proizvedeniya. - Moskva: Sovetskiy pisatel, 1985.
3. Ziyouz.com kutubxonasi - Aleksandr Faynberg she'rlari. - www.ziyouz.com
4. Rahmonov N. XX o'zbek she'riyati tahlillari. - Toshkent: Universitet, 2010.
5. Aleksandr Arkadevich Faynberg hayoti va ijodini o'rganish bo'yicha Dastur va uslubiy qo'llanma.

